

“BENBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Б.Н. Флоря (2009) отмечает, что церковнославянский до сих пор используется в Русской православной церкви, но с местными особенностями (с. 89). Интересные факты о старославянском:

- Буква «S» (зело): обозначала звук [дз], как в слове «дзень». Позже её заменили на «з».

- Самые древние тексты: «Киевские листки» (X век) и «Саввина книга» (XI век).

- Влияние на другие языки: В румынском языке есть старославянские заимствования, например, «dragoste» (любовь).

Почему старославянский важен сегодня?

- Лингвистика: помогает понять, как развивались славянские языки.

- Культура: без него не было бы древнерусской литературы, включая «Слово о полку Игореве».

- Образование: Знание старославянского облегчает изучение других славянских языков. Н. И. Толстой (2003) подчёркивает, что старославянский — ключ к пониманию славянской идентичности (с. 167).

Изучая старославянский, я словно попал в машину времени. Этот язык не только связывает нас с предками, но и показывает, как из смеси культур, войн и религий рождаются современные народы. Да, учить падежи и юсы сложно, но без них мы бы не смогли прочитать древние летописи или понять, откуда взялось слово «слава».

Надеюсь, после этой статьи вы тоже захотите хотя бы раз взглянуть на глаголицу или попробовать перевести старославянский текст.

СПИСОК ИСТОЧНИКОВ:

1. Творогов, О.В. (2001). «Древняя Русь: События и люди». СПб: Наука.
2. Камчатнов, А.М. (2004). «Старославянский язык». М.: Академия.
3. Жуковская, Л.П. (1981). «Тексты и язык древних славян». М.: Изд-во МГУ.
4. Иванов, В.В. (1990). «Историческая грамматика русского языка». М.: Просвещение.
5. Флоря, Б.Н. (2009). «Славянские азбуки: Тайны происхождения». Киев: Либідь.
6. Толстой, Н.И. (2003). «Славянские древности». М.: Международные отношения.
7. Хабургаев, Г.А. (1974). «Старославянский язык». М.: Высшая школа.

MEHNAT MIGRANTLARNING QAYTISHI VA REINTEGRATSIYA KONTSEPTSIYASI

Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna

Ilmiy rahbar: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchi

e.mail: zaretdinovanesibeli@gmail.com

Xakimniyazova Mavluda Batir qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tarix fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

e.mail: mavludaxakimniyazova167@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mehnat migrantlarining O'zbekistonga qaytganidan keyingi reintegratsiya jarayoni yoritilgan. Reintegratsiya - bu migrantlarning iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va huquqiy jihatdan jamiyatga qayta moslashuvi sifatida talqin etiladi. Asosiy e'tibor O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy reintegratsiya shakllariga qaratilgan. "Ishga marhamat" markazlari faoliyati, kasbiy qayta tayyorlash kurslari, kredit va grant dasturlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qaytgan migrantlarning moslashuv davrida duch keladigan asosiy muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Maqolada mavjud holat asosida reintegratsiyani samarali tashkil etish bo'yicha takliflar keltirilgan.*

Annotation: *This article analyzes the reintegration process of labor migrants returning to Uzbekistan. Reintegration is defined as the economic, social, psychological, and legal re-adaptation of migrants into society. The main focus is on the forms of reintegration currently being implemented in Uzbekistan. The activities of "Ishga marhamat" centers, vocational retraining programs, and credit and grant schemes are examined. In addition, key challenges faced by returning migrants during the adaptation period and possible solutions are discussed. The article presents proposals based on the current situation to enhance the effectiveness of reintegration efforts.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс реинтеграции трудовых мигрантов, возвращающихся в Узбекистан. Реинтеграция рассматривается как процесс повторной адаптации мигрантов к экономической, социальной, психологической и правовой среде общества. Основное внимание уделено формам реинтеграции, реализуемым в Узбекистане. Рассматривается деятельность центров «Ishga marhamat», программы профессиональной переподготовки, а также системы кредитов и грантов. Также обсуждаются основные проблемы, с которыми сталкиваются возвращающиеся мигранты в период адаптации, и возможные пути их решения. В статье представлены предложения по повышению эффективности процессов реинтеграции на основе текущей ситуации.*

Kalit so'zlar: *Mehnat migratsiyasi, reintegratsiya, qaytgan migrantlar, ijtimoiy moslashuv, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, psixologik moslashuv, huquqiy yordam, kasbiy tayyorgarlik, kredit va grantlar, "Ishga marhamat" markazlari, davlat siyosati*

Keywords: *labor migration, reintegration, returning migrants, social adaptation, economic support, psychological adjustment, legal assistance, vocational training, credit and grants, "Ishga marhamat" centers, state policy*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Ключевые слова: трудовая миграция, реинтеграция, возвращающиеся мигранты, социальная адаптация, экономическая поддержка, психологическая адаптация, правовая помощь, профессиональная подготовка, кредиты и гранты, центры «Ishga marhamat», государственная политика

KIRISH

So‘nggi yillarda global miqyosda mehnat migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston ham bu jarayonda faol ishtirok etayotgan davlatlardan biri bo‘lib, har yili yuz minglab fuqarolar xorijga vaqtincha ishlash uchun chiqib ketmoqda. Migratsiyaning asosiy yo‘nalishlari sifatida Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlar ajralib turadi. Fuqarolarning asosiy maqsadi — oila byudjetini mustahkamlash va yangi imkoniyatlar izlashdan iborat.

Ammo mehnat migrantlarining chet elda qolish muddati doimiy emas. Turli sabablarga ko‘ra, ular vataniga qaytadi. So‘nggi yillarda pandemiya, geosiyosiy inqirozlar va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar natijasida minglab o‘zbekistonlik migrantlar majburiy yoki ixtiyoriy tarzda qaytishga majbur bo‘ldi. Shu o‘rinda muhim savollar tug‘iladi: qaytgan migrantlar nega jamiyatga to‘liq reintegratsiylanmayapti? Ular duch kelayotgan asosiy to‘siqlar nimalardan iborat? Ishsizlik, psixologik moslashuvdagi qiyinchiliklar, huquqiy savodsizlik va ijtimoiy ajralganlik – bu omillar ularning barqaror hayot qurishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Aynan shu nuqtada "reintegratsiya" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu — migrantning nafaqat jismonan, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va huquqiy jihatdan ona yurtida barqaror hayotga qayta qo‘shilishidir. Bu murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, davlat siyosati, mahalliy boshqaruv organlari va xalqaro tashkilotlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarini talab etadi.

Shu bois, mazkur maqolada O‘zbekistonda, ayniqsa, Qaytgan mehnat migrantlarining reintegratsiyasi bilan bog‘liq mavjud holat, muammolar va istiqbolli takliflar tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Mehnat migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, bu jarayonning tugallovchi bosqichi sifatida reintegratsiya tushunchasi alohida o‘rin egallaydi. Reintegratsiya – bu migrantlarning ona yurtdagi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va psixologik muhitga qayta moslashuvi jarayonidir. U faqatgina jismoniy qaytish emas, balki barqaror hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi tizimli jarayondir.

Migratsiyani tushunishda keng qo‘llaniladigan nazariyalardan biri bu push-pull (ituvchi-va-jalbeduvchi) omillar nazariyasidir[1]. Bu yondashuvga ko‘ra, migrantlarni vatanini tark etishga majbur qiluvchi omillar (masalan, ishsizlik, kam daromad, siyosiy beqarorlik) – push, xorijiy davlatlarda ularni jalb qiluvchi omillar (ko‘proq ish haqi, barqarorlik) esa pull omillar sifatida baholanadi. Ammo ushbu nazariya migrantlarning qaytish va qayta moslashish bosqichini to‘liq tushuntirib bermaydi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Shu bois, reintegratsiyani chuqurroq tahlil qilishda strukturaviy-funksional va sotsiologik integratsiya yondashuvlari qo'llaniladi[2]. Strukturaviy yondashuvga ko'ra, migrantlar qaytganidan so'ng jamiyatdagi mavjud institutlar – mehnat bozori, ijtimoiy himoya tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi tizimlarga muvaffaqiyatli qo'shilishi kerak. Integratsiya nazariyasida esa qaytgan shaxsning ijtimoiy rolga qaytishi, madaniy muhitni qabul qilishi va o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilishi muhim hisoblanadi.

Reintegratsiya jarayoni global migratsiya tizimlarining ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda. Castles va Miller[3] ta'kidlaganidek, zamonaviy migratsiya jarayonlari nafaqat odamlarning harakati, balki ularning ijtimoiy tizimlarga qayta qo'shilish darajasi bilan bog'liqdir.

Xalqaro migratsiya tashkiloti IOM tomonidan ishlab chiqilgan Reintegration Handbook'da reintegratsiya jarayoni kompleks, ko'p bosqichli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib borilishi zarurligi ta'kidlanadi[4.1]. Unda ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy jihatlar uyg'un holda ko'rib chiqiladi.

Reintegratsiya jarayoni – bu migratsiya tsiklining yakuniy, ammo eng murakkab bosqichidir. Agar ushbu bosqich muvaffaqiyatsiz yakunlansa, migrantning qaytadan chet elga chiqib ketish ehtimoli ortadi, bu esa barqaror ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli reintegratsiyaga davlat siyosati darajasida yondashish zarur bo'ladi.

O'zbekistonda qaytgan mehnat migrantlarining reintegratsiyasiga doir bir qator davlat va xalqaro tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yildan boshlab faoliyat yuritayotgan “Ishga marhamat” monomarkazlari orqali minglab qaytgan fuqarolar kasbiy qayta tayyorlov va til kurslariga jalb qilinmoqda. Faqatgina 2021-yilning o'zida 52 632 nafar shaxs bu markazlarda o'qitilgan[5]. Sertifikatlash jarayoni WorldSkills Uzbekistan bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda; natijada “Skills Passport” tizimi orqali kasbga ega bo'lgan migrantlar mehnat bozoriga moslashmoqda[6].

Bundan tashqari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi 2021–2022 yillarda 395 ta xorijiy ish beruvchi bilan shartnoma tuzgan va 70 000 dan ortiq ish o'rinlari ochilgan[7]. Qaytgan migrantlarga bir martalik moddiy yordam, mikrokredit va subsidiyalar ajratish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Mikrokreditlar IFAD [8] dasturlari orqali ayniqsa qishloq joylarda faol tatbiq etilmoqda.

Shu bilan birga, reintegratsiya jarayonida bir qator muammolar ham mavjud: qaytgan migrantlarning ish topishda qiynalishi, psixologik moslashuvda qiyinchiliklar, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi byurokratik to'siqlar. IOM [4.2] qo'llanmasida qayd etilishicha, reintegratsiya jarayoni individual ehtiyojlarga asoslangan bo'lishi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-psixologik yordamni o'z ichiga olishi zarur.

XULOSA

Reintegratsiya jarayoni - bu migrantning o'z vataniga qaytishi, jamiyatga moslashuvi va barqaror hayot qurishidir. Bu jarayon nafaqat individual, balki davlat va jamiyat uchun ham strategik ahamiyatga ega.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Qaytgan migrantlar mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining muhim qismi hisoblanadi. Ularning salohiyatini to‘liq ochish va qo‘llab-quvvatlash mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash, ishsizlik darajasini pasaytirish va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun qaytgan migrantlarni ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi zarur. Bu nafaqat ularning hayot sifatini yaxshilaydi, balki mamlakatning umumiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Mehnat migrantlarining muvaffaqiyatli reintegratsiyasi uchun bir qator muhim chora-tadbirlar va istiqbollar mavjud.

Maxsus milliy dastur qabul qilish: Qaytgan migrantlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng qamrovli milliy dastur ishlab chiqilishi zarur. Bu dastur iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va huquqiy jihatlarni qamrab olib, davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar va nodavlat tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Psixologik yordam markazlari tashkil etish: Migratsiyadan qaytgan shaxslar ko‘pincha psixologik stress, adaptatsiya muammolari bilan yuzlashadi. Shu bois, maxsus psixologik yordam va maslahat markazlarini ochish muhim.

Raqamli platformalar orqali ro‘yxatga olish va monitoring: Qaytgan migrantlarni raqamli platformalar yordamida doimiy ro‘yxatga olish va faol kuzatib borish, ularning ehtiyojlariga mos xizmatlar ko‘rsatishni osonlashtiradi. Bu nazoratni kuchaytiradi va xizmatlarni takomillashtiradi.

“Birinchi ish joyi” loyihasi: Yangi qaytgan migrantlar uchun ish o‘rinlari yaratish va ularni ishga joylashtirishga yordam beruvchi loyihalar joriy etilishi zarur. Bu loyihalar nafaqat iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi, balki ijtimoiy moslashuvni ham yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Migratsiya vaziyatiga oid hisobot. 2023-yil oktabr-dekabr. O‘zbekiston migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (IOM). Mobillikni kuzatish matritsasi (MTM). 6,7-betlar <https://dtm>
2. Berry, J. W. (1997). Immigration, acculturation, and adaptation. *Applied Psychology: An International Review*, 46(1), 5–34. <https://doi.org> Sotsiokultural integratsiya va moslashuv nazariyasining asosiy manbasi.
3. Castles, S., & Miller, M. J. (2009). *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World* (4th ed.). Palgrave Macmillan.
4. International Organization for Migration (IOM). (2019). *Reintegration Handbook: Practical guidance on the design, implementation and monitoring of reintegration assistance*. Geneva: IOM. <https://publications>
5. Bandlik va Mehnat Munosabatlari Vazirligi. (2022). 2021-yil yakunlari bo‘yicha bandlik va mehnat migratsiyasi hisobotlari. Toshkent: BMMV. www.mehnat.uz

6. WorldSkills Uzbekistan. (2021). Kasbiy malaka va sertifikatlash bo'yicha yillik hisobot. Toshkent. www.worldskills.uz
7. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi. (2022). Xalqaro ishga joylashtirish faoliyati statistikasi (2021–2022). Toshkent. www.migration.uz
8. International Fund for Agricultural Development (IFAD). (2021). Migrant Contributions for Development: Supporting Return and Reintegration in Uzbekistan. Rome: IFAD. <https://www.ifad.org>

**TALABALAR UCHUN ONLAYN KURSLAR VA SERTIFIKATLASH
DASTURLARINI JORIY ETISH: COURSERA, UDEMY, DATACAMP KABI
XALQARO PLATFORMALAR BILAN HAMKORLIK QILISH**

Raximova Sevinch Abduhamid qizi

SHDPI, O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi 2-23 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida onlayn kurslar va xalqaro sertifikatlash dasturlarini joriy etish masalasi tahlil qilinadi. Coursera, Udemiy va DataCamp kabi platformalar orqali talabalar kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkinligi, ularning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, onlayn kurslar talabalarning bilim olish jarayonini soddalashtirib, moslashuvchan ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, maqolada ushbu platformalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, sertifikatlash, Coursera, Udemiy, DataCamp, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Abstract. This article examines the introduction of online courses and international certification programs in Uzbekistan's education system. It explores how platforms such as Coursera, Udemiy, and DataCamp can enhance students' professional knowledge and skills, increasing their competitiveness in the labor market. The research findings indicate that online courses simplify the learning process and expand flexible education opportunities. The article also provides recommendations for establishing partnerships with these platforms.

Keywords: online education, certification, Coursera, Udemiy, DataCamp, digital learning, distance education, Uzbekistan's education system.

Аннотация. В данной статье рассматривается внедрение онлайн-курсов и международных программ сертификации в систему образования Узбекистана. Анализируется, как платформы Coursera, Udemiy и DataCamp могут способствовать повышению профессиональных знаний и навыков студентов, увеличивая их конкурентоспособность на рынке труда. Результаты исследования показывают, что